

## Tashqi savdo aylanmasi


2026-yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport ko'rsatkichlari
- III. Import ko'rsatkichlari
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

### I. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yil yanvar-mart oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 18,0 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 471,0 mln AQSH dollariga yoki 2,7 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi  
yanvar-mart mln AQSH dollari



TSAda eksport hajmi 5 809,2 mln AQSH dollariga (2025-yilning mos davriga nisbatan 29,3 % ga kamaydi) va import hajmi 12 213,8 mln AQSH dollariga (30,8 % o'sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 6 404,6 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

Shu bilan birga, maxsus eksportni hisobga olmaganda, tovarlar eksporti barqaror o'sishni namoyon etdi va 3 482,4 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 % ga oshdi.

**O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar**  
**bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
*yanvar-mart mln AQSH dollari*

	<b>2024-y.</b>	<b>2025-y.</b>	<b>2026-y.</b>
Xitoy	3 025,5	3 014,6	4 617,0
Rossiya Federatsiyasi	2 809,0	2 663,2	3 281,5
Qozog'iston	937,2	1 025,6	1 306,5
Turkiya	676,3	610,7	653,4
Afg'oniston	238,8	402,0	508,0
Fransiya	311,8	345,7	488,9
Koreya Respublikasi	544,2	417,1	463,6
BAA	134,7	246,3	458,7
Turkmaniston	205,3	180,7	357,5
Germaniya	268,9	302,7	304,8
Hindiston	212,2	281,8	299,8
Belarus	141,0	173,7	259,7
AQSH	205,7	249,3	258,4
Qirg'iz Respublikasi	154,1	154,6	221,7
Tojikiston	152,6	142,7	188,8
Gonkong*	24,4	24,4	155,7
Eron	104,9	101,3	151,4
Italiya	114,5	98,4	116,5
Irlandiya	34,0	17,2	102,7
Ukraina	51,7	68,4	94,4

O'zbekiston jahonning 170 dan ortiq mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (25,6 %), Rossiya Federatsiyasi (18,2 %), Qozog'iston (7,2 %), Turkiya (3,6 %) va Afg'oniston (2,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 59,9 % ni tashkil etib, jumladan, sanoat tovarlari (17,8 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (10,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,2 %) va har xil tayyor mahsulotlar hissasi yuqori (9,2 %) bo'ldi.

\* Xitoy maxsus ma'muriy hududi


## II. Eksport ko'rsatkichlari yanvar-mart

Tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
<b>Jami eksport</b>	<b>8 213,6</b>	<b>5 809,2</b>	<b>126,1</b>	<b>70,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	469,5	534,8	133,5	113,9	5,7	9,2
Ichimliklar va tamaki	36,6	57,0	146,9	155,5	0,4	1,0
Nooziq-ovqat xomashyosi, yoqilg'idan tashqari	71,2	83,1	89,0	116,8	0,9	1,4
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	258,3	243,8	122,5	94,4	3,1	4,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	17,5	29,5	2,6 b.	168,3	0,2	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	419,4	613,0	111,5	146,2	5,1	10,6
Sanoat tovarlari	896,9	1 034,1	87,7	115,3	10,9	17,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	264,8	301,8	107,8	114,0	3,2	5,2
Turli xil tayyor buyumlar	287,7	535,6	107,1	186,2	3,5	9,2
Boshqa tovarlar	3 656,4	49,5	136,8	1,4	44,5	0,9
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>3 570,7</i>	<i>0,0</i>	<i>134,0</i>	<i>-</i>	<i>43,5</i>	<i>-</i>
Xizmatlar	1 835,2	2 326,8	146,2	126,8	22,3	40,1

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

### O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi 2026-yil yanvar-mart, mln AQSH dollari



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlar Rossiya (18,1 %), Xitoy (11,0 %), Afg'oniston (7,6 %), Fransiya (7,0 %), Qozog'iston (4,9 %), Turkiya (4,0 %), BAA (3,0 %), Qirg'iz Respublikasi (2,9 %) va Tojikiston (2,4 %) kabi davlatlar bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 60,0 % dan ortiqni tashkil etdi.

XSST bo'yicha tovarlar eksporti tarkibi  
2026-yil yanvar-mart

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>0</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>534,8</b>	<b>113,9</b>
05	Sabzavotlar va mevalar	326,1	109,1
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	147,8	117,5
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	15,0	2,6 b.
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	14,5	85,8
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	10,1	123,7
00	Tirik hayvonlar	6,6	5,2 b.
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	5,2	111,3
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	4,8	2,2 b.
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	3,4	65,4
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	1,3	2,0 b.
<b>1</b>	<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>57,0</b>	<b>155,5</b>
11	Ichimliklar	38,5	2,3 b.
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	18,5	94,0
<b>2</b>	<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>83,1</b>	<b>116,8</b>
28	Metall rudalari va metall parchalari	26,9	2,7 b.
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	21,2	91,0
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	13,0	84,0
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	10,0	107,3
25	Qog'oz massasi va makulatura	5,9	91,3
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	4,9	85,4
24	Probka va yog'och-taxtalar	0,7	129,3
23	Tabiiy kauchuk	0,5	115,9
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,0	0,0
<b>3</b>	<b>Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>243,8</b>	<b>94,4</b>
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	150,1	131,3
35	Elektr toki	56,2	114,0
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	36,7	39,0
32	Ko'mir, koks va briketlar	0,8	189,1
<b>4</b>	<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>29,5</b>	<b>168,3</b>
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	29,1	165,7
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,5	91,1 b.
<b>5</b>	<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>613,0</b>	<b>146,2</b>
52	Noorganik kimyo moddalari	424,6	182,5
56	O'g'itlar	82,6	93,9
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	48,9	87,5
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14,3	102,3
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	13,6	140,7

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	9,2	164,6
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	8,6	159,3
51	Organik kimyo moddalari	6,2	109,7
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	5,2	189,7
<b>6</b>	<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>1 034,1</b>	<b>115,3</b>
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	429,8	106,1
68	Rangli metallar	367,0	107,8
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	73,2	158,7
67	Cho'yan va po'lat	67,6	3,0 b.
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	63,3	138,8
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	12,5	121,0
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	8,0	98,9
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	7,4	110,2
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	5,3	44,7
<b>7</b>	<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>301,8</b>	<b>114,0</b>
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	62,0	113,1
79	Boshqa transport uskunolari	58,5	107,4
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	46,9	5,7 b.
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	44,8	58,5
784	<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	37,2	53,9
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	40,5	91,4
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	33,8	2,6 b.
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12,7	106,4
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	1,6	163,3
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1,0	3,2 b.
<b>8</b>	<b>Turli xil tayyor mahsulotlar</b>	<b>535,6</b>	<b>186,2</b>
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	300,6	136,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	214,8	4,0 b.
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	10,0	2,7 b.
85	Poyabzal	4,1	178,1
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2,6	84,3
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2,0	119,9
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1,5	82,7
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	0,1	15,6
<b>9</b>	<b>Boshqa tovarlar</b>	<b>49,5</b>	<b>1,4</b>
97	Nomonetar oltin (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	30,0	0,8
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo'yicha tasniflanmagan tovarlar	19,5	180,7


2026-yil yanvar-mart oylarida 339,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 10,0 % yoki 30,9 ming tonnaga oshdi.

### Meva va sabzavotlar eksporti yanvar-mart

	2025-yil		2026-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
<b>Jami</b>	<b>309,1</b>	<b>282,7</b>	<b>339,9</b>	<b>317,7</b>
<b>mevalar va rezavorlar</b>	<b>52,0</b>	<b>60,2</b>	<b>75,2</b>	<b>93,0</b>
quritilgan uzum	24,2	31,4	31,4	36,0
quritilgan olxo'ri	12,1	16,4	9,8	18,1
quritilgan o'rik	3,8	5,0	6,2	15,1
uzum	9,4	6,1	17,1	11,1
anor	-	-	7,5	11,0
xurmo	2,6	1,3	3,2	1,6
<b>sabzavotlar</b>	<b>149,6</b>	<b>49,2</b>	<b>148,2</b>	<b>57,7</b>
karam	55,5	19,6	74,6	29,1
piyoz	64,6	14,4	37,7	9,2
pomidor	5,9	6,8	6,4	8,1
sabzi	17,1	3,0	24,0	4,9
qalampir	4,7	3,3	3,1	4,3
bodring	1,8	2,1	2,3	2,0
tarvuz va qovun	0,4	0,1	0,2	0,0
yeryong'oq va yong'oqlar	7,7	17,9	7,3	16,3
mosh	18,8	15,7	19,3	18,3
boshqa	80,6	139,7	89,7	132,4


2026-yil yanvar-mart oylarida 317,7 mln AQSH dollariga teng meva va sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga o'sdi va jami eksportdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2026-yil yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha 739,9 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 12,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,6 % ga oshdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (51,7 %), ip kalava (31,4 %) asosiy ulushni egallagan.



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar eksporti hajmi 2 326,8 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 40,1 % ini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 26,8 % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (48,0 %), transport (35,5 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (10,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

### III. Import ko'rsatkichlari

Ushbu davrga kelib import hajmi 12 213,8 mln AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 30,8 % ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (33,8 %), sanoat tovarlari (13,9 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.


Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, 2025-yilning mos davriga nisbatan 2 689,7 mln AQSH dollariga ko'paydi va 10 991,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 222,8 mln AQSH dollariga yetdi.

O'zbekiston Respublikasining importi tarkibi  
yanvar-mart

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
<b>Jami import</b>	<b>9 338,4</b>	<b>12 213,8</b>	<b>99,2</b>	<b>130,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	953,5	1 391,1	115,3	145,9	10,2	11,4
Ichimliklar va tamaki	50,0	71,3	85,0	142,6	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	224,5	288,9	139,3	128,7	2,4	2,4
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	713,2	1 172,5	73,8	164,4	7,6	9,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	108,3	158,1	142,4	146,0	1,2	1,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 202,6	1 461,2	103,9	121,5	12,9	12,0
Sanoat tovarlari	1 485,2	1 696,2	95,8	114,2	15,9	13,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3 181,0	4 132,1	90,0	129,9	34,1	33,8
Turli xil tayyor buyumlar	307,3	441,8	92,8	143,7	3,3	3,6
Boshqa tovarlar	75,8	177,9	3,2 b.	2,3 b.	0,8	1,5
Xizmatlar	1 037,0	1 222,8	142,5	117,9	11,1	10,0

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi  
2026-yil yanvar-mart, mln AQSH dollari



2026-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi 140 dan ortiq davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar, jumladan, Xitoy (32,5 %), Rossiya (18,3 %), Qozog'iston (8,4 %), Koreya Respublikasi (3,7 %), Turkiya (3,5 %), Turkmaniston (2,6 %) va BAA (2,3 %) jami importning 70,0 % dan ortig'ini tashkil etdi.

**XSST bo'yicha tovarlar importi tarkibi**  
2026-yil yanvar-mart


XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>0</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>1 391,1</b>	<b>145,9</b>
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	392,9	167,5
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	241,4	174,9
05	Sabzavotlar va mevalar	179,8	132,8
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	167,7	132,5
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	129,0	118,5
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	84,1	134,7
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	78,5	160,2
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	74,0	133,5
00	Tirik hayvonlar	29,5	91,5
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	14,1	130,3
<b>1</b>	<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>71,3</b>	<b>142,6</b>
11	Ichimliklar	38,7	123,7
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	32,6	174,4
<b>2</b>	<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>288,9</b>	<b>128,7</b>
24	Probka va yog'och-taxtalar	104,9	100,5
28	Metall rudalari va metall parchalari	59,9	2,3 b.
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	41,8	2,3 b.
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	22,4	119,7
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	19,7	129,1
25	Qog'oz massasi va makulatura	15,5	104,1
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	15,0	88,5
23	Tabiiy kauchuk	9,6	99,5
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,2	148,5
<b>3</b>	<b>Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>1 172,5</b>	<b>164,4</b>
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	724,2	165,2
334	<i>shu jumladan: benzin (avtomobillar uchun)</i>	498,5	137,5
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	360,5	2,2 b.
32	Ko'mir, koks va briketlar	44,8	91,8
35	Elektr toki	43,0	71,2
<b>4</b>	<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>158,1</b>	<b>146,0</b>
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	141,9	153,6
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	15,5	99,1
41	Hayvonlarning yog'lari	0,6	3,3 b.
<b>5</b>	<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>1 461,2</b>	<b>121,5</b>
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	473,5	100,2
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	281,6	134,3
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	191,1	125,8
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	157,0	148,6
51	Organik kimyo moddalari	144,7	167,6



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
52	Noorganik kimyo moddalari	92,4	132,6
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	63,2	101,6
56	O'g'itlar	29,7	155,4
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	28,0	110,1
<b>6</b>	<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>1 696,2</b>	<b>114,2</b>
67	Cho'yan va po'lat	731,1	107,3
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	240,9	112,4
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	142,3	113,8
68	Rangli metallar	140,5	193,8
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	124,0	135,8
62	Rezina buyumlari	113,7	88,1
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	113,3	122,3
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	90,1	114,6
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,4	86,0
<b>7</b>	<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>4 132,1</b>	<b>129,9</b>
78	Avtomobil (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	907,4	135,1
781	<i>shu jumladan: asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	369,8	3,2 b.
784	<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	419,4	106,2
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	820,0	181,1
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	588,3	113,4
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	578,0	86,8
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	427,3	193,3
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	385,0	173,1
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	207,6	2,5 b.
79	Boshqa transport uskunolari	176,1	71,2
	<i>shu jumladan: samolyotlar va boshqa mexanik quvvatga ega uchish apparatlari (vertolyotlardan tashqari)</i>	71,1	41,5
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	42,2	43,8
<b>8</b>	<b>Turli xil tayyor mahsulotlar</b>	<b>441,8</b>	<b>143,7</b>
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	153,4	159,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	120,7	132,5
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	61,9	171,6
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	48,2	121,0
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	35,7	134,5
85	Poyabzal	11,3	120,0
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	5,5	139,6
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	5,1	123,7
<b>9</b>	<b>Boshqa tovarlar</b>	<b>177,9</b>	<b>2,3 b.</b>
97	Nomonetar oltin (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	177,9	2,3 b.

2026-yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 222,8 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 10,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga oshdi.

**Xizmatlar importi tarkibi**  
2026-yil yanvar-mart, mln AQSH dollari



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulush safarlar (49,8 %), transport xizmatlari (19,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (12,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (8,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

#### IV. Uslubiy ma'lumotlar

Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash imkonini beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Bunda, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan belgilangan turdagi tovarlar bo'yicha statistika kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar manbasi hisoblanadi. Xizmatlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Ba'zi hollarda, jami sonlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.



## V. Aloqador boshqa havolalar

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hududlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

---

### Chop etishga mas'ul:

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi

**Manzil:** 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

**Elektron pochta:** [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)  
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)

